

KAR BOLALARNI OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA LOGOPEDIK YONDASHUVLAR

Karimova Farzona Abdusattor qizi

Qo'qon D.U. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) yo'nalishi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kar bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish jarayonida logopedik yondashuvning ahamiyati, tamoyillari va samarali metodlari yoritilgan. Nutq apparatini faollashtirish, eshitish qoldig'idan foydalanish, artikulyatsion mashqlar, vizual qo'llab-quvvatlash hamda multisensor yondashuvning o'rnini batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, logoped va surdopedagog hamkorligi, zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi ham amaliy misollar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari kar bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish bosqichma-bosqich, bolaning egallash holatini inobatga olish va tizimli yondashuvni talab etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kar bolalar, og'zaki nutq, logopediya, surdopedagogika, artikulyatsiya, eshitish qoldig'i, multisensor yondashuv, nutq rivoji, korreksion metodlar.

ЛОГОПЕДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ УСТНОЙ РЕЧИ У ГЛУХИХ ДЕТЕЙ

Аннотация: В статье освещаются значение, принципы и эффективные методы логопедического подхода в процессе развития устной речи у глухих детей. Подробно анализируется роль активизации речевого аппарата, использования слухового остатка, артикуляционных упражнений, визуальной опоры и мультисенсорного подхода. Также рассматриваются взаимодействие логопеда и сурдопедагога, использование современных технологий на практических примерах. Результаты исследования показывают, что формирование устной речи у глухих детей – это поэтапный процесс, учитывающий уровень освоения языка ребенком, и требует системного подхода.

Ключевые слова: глухие дети, устная речь, логопедическая терапия, педагогика глухих, артикуляция, остаточный слух, мультисенсорный подход, развитие речи, методы коррекции.

LOGOPEDIC APPROACHES IN DEVELOPING ORAL SPEECH IN DEAF CHILDREN

Annotation: This article highlights the importance, principles and effective methods of the speech therapy approach in the process of developing oral speech in deaf children. The role of activating the speech apparatus, using the auditory remnant, articulation exercises, visual support and a multisensory approach is analyzed in detail. The cooperation of a speech therapist and a deaf teacher, the use of modern technologies are also considered together with practical examples. The results of the study show that the formation of oral speech in deaf children is a gradual process, taking into account the child's level of acquisition and requires a systematic approach.

Keywords: *deaf children, oral speech, speech therapy, deaf pedagogy, articulation, residual hearing, multisensory approach, speech development, correction methods.*

KIRISH

Hukumatimiz tomonidan inson mafaatlari ko'zlash va himoyalash barobarida, jamiyatimizning ajralmas qismi bo'lgan alohida yordamga muhtoj qatlarga jiddiy e'tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. SHu jumladan Zamin xalqaro fondi tomonidan tashkil qilingan "Men eshitishni xohlayman" loyihasi asosida 5206 nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi bolalar tikshiruvdan o'tkazildi. 4130 nafar o'quvchilarga eshitish moslamalari tarqatildi. 179 nafar o'quvchilar koxlear implantatsiya operatsiya qilindi. 19ta maktab-internatlarda FM sistemalari o'rnatildi [1-3]. Zamin education kompyutir xonalari tashkil etildi. Robototexnika bo'yicha maxsus adabiyot kitoblar bilan taminlandi. Eshitishda muammolari bo'lgan bolalar hayotga moslashtirish tizimining ilmiy-metodik ta'minotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan o'qitish mazmun, maxsus metodlarining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Shuningdek, maxsus ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etuvchi eshitish qobiliyatini rivojlantirishda sensor jihatdan va bilish faoliyatini ilmiy-nazariy masalalari So'nggi yillardagi tadqiqotlar eshitishda muammolari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga erta moslashtirish qilish masalalari xal etilgan. Og'zaki nutqni shakllantirish ko'p qirrali jarayon sanaladi. Uning turli shakllarini, avvalo muloqot asosini tashkil etadigan og'zaki nutqni rivojlantirish zarur.

METODOLOGIYA

Kar bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari: eshitishning to'liq yoki qisman yo'qligi fonematik eshitish, artikulyatsion koordinatsiya, nafas-ovoz tizimi va prosodik ko'nikmalarning shakllanishiga ta'sir qiladi [4]. Ko'plab tadqiqotlar kar bolalarda nutqning kechikib rivojlanishi quyidagi omillar bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi [5-8]:

1. **Tovushlarni farqlash imkoniyatining pastligi**
2. **Noto'g'ri artikulyatsiya odatlarining shakllanishi**
3. **Ovoz balandligi va tembrini boshqarish qiyinligi**

4. **Soʻz boyligining cheklanganligi**

5. **Fikrni ogʻzaki ifodalashda uyatchanlik yoki qiyinchilik.** Bu xususiyatlar logopedik jarayonning maxsus tuzilishini talab qiladi.

Kar bolalarda talaffuz koʻnikmalarini shakllantirish avvalo katta odamga taqlid shaklida, eshitish apparatlaridan foydalanilgani xolda amalga oshiriladi. Goʻdakning ovoz reaksiyalarini faollashtirish bu reaksiyalarni qoʻllab-quvvatlash va yangi tovushlar xosil qilishga qaratilgan mashqlarni oʻtkazish jarayonida amalga oshiriladi. Bu mashqlar muloqot jarayonida, katta odam bola bilan turli tovush va tovush birikmalaridan foydalanib, ularni minestika elementlari bilan birga qoʻllab "gaplashganida" amalga oshiriladi. Bir yarim-ikki yoshli bolaning ogʻzaki nutqi ustida ishlashning muhim vazifasi bolada ogʻzaki nutq ehtiyojini shakllantirish sanaladi [9]. Eng muhimi bolaning katta odamga ergashib tovush, boʻgʻin, soʻzlarni talaffuz qilishga urinishi. Nutqqa taqlid harakatlarga taqlid bilan uzviy bogʻliq. Eshitib idrok etishni rivojlantirish bolaning bilish faoliyati, nutq va talaffuzni idrok etish mexanizmlari shakllanishi uchun katta ahamiyatga ega. Qoldiqli eshitishni rivojlantirish boʻyicha ishlarni erta boshlash alohida muxim ahamiyat kasb etadi, shu sababli eshitish funksiyasini rivojlantirish bola hayotining birinchi yillarida tobora sezitiv davrda amalga oshiriladi, bunda eshitish analizatori fiziologik jihatdan yetiladi, bu pedagogik ish samaradorligini taʼminlaydi. Pedagogik ish samaradorligini oshirishda logopedik metodlar va ular natijalari muhim [10-13]:

MUHOKAMA

Artikulyatsion mashqlar: til, lab, jagʻ harakatlarini mustahkamlovchi mashqlar kar bolalarda toʻgʻri talaffuzning asosini yaratadi. Oyna oldida bajariladigan vizual mashqlar koʻproq samara beradi.

Eshitish qoldigʻidan foydalanish: koxlear implantlar, eshitish apparatlari yordamida tovushni farqlash koʻnikmalari shakllantiriladi. Dastlab baland-past tovushlar, keyin nutq tovushlari oʻrgatiladi.

Nafas va ovoz ustida ishlash: diafragmal nafas, ovoz chiqarish mashqlari, unli tovushlarni choʻzib aytish ogʻzaki nutqning poydevorini mustahkamlaydi.

Bo'g'in va so'zlarni shakllantirish: oddiy bo'g'in strukturalaridan murakkabrog'iga o'tish orqali bolada so'z yasash va talaffuz qilish qobiliyati rivojlanadi.

Kommunikativ o'yinlar va rolli mashg'ulotlar [14]: Real hayotga yaqin vaziyatlarda muloqot qilish og'zaki nutqni tabiiy rivojlantirishga yordam beradi.

Dastlabki oylar davomida bolada katta odamning tovushi, ovozli o'yinchoqlarga kompleks ko'rish-eshitish e'tiborini jamlash shakllantiriladi. Kar bolalar maktabga borishdan oldin bolaning artikulyatsion nafas olish va ovoz apparatini tayyorlash kerak. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlarga egadir. U bo'lingan havo oqimidan foydalana olmaydi va frazalarni qismlarga bo'la olmaydi. Maxsus mashqlar davomida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko'p miqdordagi karlarda ovoz bo'g'iq, modullashmagan bo'ladi. Maxsus mashqlar jarayonida o'qituvchi kar o'quvchi ovozi eshituvchi bola ovozigacha yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Kar bola nutqi ovozi butun hayoti davomida o'ziga xos ot tenkaga ega bo'ladi. Kar o'quvchilarni og'zaki nutqqa o'rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni shakllantirishdir. O'zbek tilidagi har bir fonema kar bolada maxsus usullar bilan qo'yiladi. Saqlangan analizatorlar ko'ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo'llab, o'qituvchi oyna oldida tovush talaffuzini ko'rsatadi va taqlid asosida talaffuz qilishni boladan so'raydi. Avvalom bor oson talaffuz etiluvchi tovushlar "p", "b", "m" qo'yiladi, so'ng bug'in, so'z birikmalariga o'tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o'tiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig'iga tayaniladi.

O'yin bolani har tomonlama har jihatdan to'g'ri tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. O'yin insonni barkamol avlod sifatida rivojlantiradi. O'yinchoq bu narsaning o'ziga xos predmeti bo'lib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Ko'pgina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o'yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o'zlari duch keladigan vaziyatlarga tushadi va ulardan qanday vaziyatlardan chiqishga o'rgatadi. Bola o'yinchoqlar bilan tanishish, o'ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar o'zlari orasida

bo'ladigan munosabatlari, bir-birlariga muomila madaniyatlari, o'zlari orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xoxlashadi. O'yinchoqlar orqali bola sizga, atrofdagilarga nima demoqchiligini tushuntira oladi. Ular o'yinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi. O'yinchoq bolani hartomonlama, nutqini, xotirasini, hissiyotlarini, fikrlashini rivojlantirib, shakllantiradi. N.K.Kmporskaya "O'yinchoqlar bolalarni atrofdagi haqiqiy dunyo bilan tanishtirish, ularning hissiyotlarini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega" deb yozgan. O'yinchoqlarga turli xil tasniflar mavjud bo'lib ular: Didaktik o'yinchoq, ta'limiy o'yinlar, teatro'yini, sport o'yini va musiqiy o'yinlarga ajratiladi. Didaktik o'yinchoqlar o'yin jarayonida bolalarga o'zlarining turmush tarzi, tabiati, har xil hodisalari haqida o'rgatadi. Bolalarning bilimini chuqurlashtiradi. Didaktik o'yinlar bolalar nutqini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Ta'limiy o'yin -bolalarga o'yin orqali ta'lim-tarbiya o'rgatadi. Bunda o'yin bilan bir qatorda bilim, malaka egallanadi. Teatr o'yini -zamonaviy teatrda "o'yin" atamasi aktyor tomonidan turli ifoda vositalari -nutq, mimika, imo-ishora, har xil harakatlar orqali foydalanuvchiga yetkazib berish. Sport o'yini -bolalarni sog'lom bo'lishiga qaratilgan harakatli o'yinlar. Bolalar sport o'yinlari orqali kun bo'yi tetik, quvnoq, karfiyati a'lo bo'lib yuradi. Musiqiy o'yin -bolalar bu o'yin orqali musiqaga qiziqishini shakllantiradi. Musiqiy qobiliyatlari rivojlantiradi. Bu o'yin bolalarga quvonchli va quvnoq daqiqalar beradi. Bolalarda o'yinlar orqali milliy urf-odatlarimiz ham shakllanadi. Bolalarga har bir o'yinni tushuntirish kerak. O'yin bilan o'yinchoqni farqi shundaki, o'yin orqali bolalar o'zlari turli muhitgaturlicha moslashishni o'rganadi. O'yinda bolalar o'zlari ishtirok etadi. O'yinda bolalarni psixikasi, o'y-xayollarida nima kechayotganini bilishimiz mumkin. O'yin orqali bolalar o'rtasida nutq, muomila ma'daniyati rivojlanadi. Bolaning nutqini rivojlantirishga o'yinchoqning ta'siri katta. O'yinchoqlar bilan har kuni o'tkazadigan o'yinlarida bola nafaqat o'zi foydalanadigan ob'ektlarni, balki ularning xususiyatlari, o'lchamlari, shakli, rangi va boshqalarni ham nomlashni o'rganadi. U o'yinchoqlarni o'yinga o'z g'oyalariga mos ravishda qo'shadi va ularning qolganlari bilan munosabatlarini aniqlaydi. O'yinda ishtirok etadigan narsalar vashaxslar orqali ijtimoiylashadi. Bola o'yindagi barcha harakatlarini nutq bilan birga olib boradi. Bolaning og'zaki nutqini rivojlantirish va

uning soʻz boyligini boyitish vositasi sifatida oʻyinchoqlardan foydalanish tez samara beradi. Oʻyinchoq bolada lugʻatni mustahkamlash va faollashtirish imkoniyatini yaratadi, yangi soʻzlarning manbai boʻlib xizmat qiladi. Oʻyinchoq bolada faqat ijobiy his-tuygʻularni, gapirishga boʻlgan istakni uygʻotadi. Bolaning tasvirlash va hikoya qilishga boʻlgan qiziqishi orqali bilimlari oʻrtib boradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak kar bolalarning ogʻzaki nutqini rivojlantirish murakkab, ammo tizimli yondashuv orqali bolada samarali natijalar beradigan jarayondir. Logopedik yondashuvda artikulyatsion mashqlar, eshitish qoldigʻidan foydalanish, multisensor metodlar va vizual qoʻllab-quvvatlash asosiy oʻrin tutadi. Eshitishi 60 Db dab past oʻquvchilarni ogzaki nutqini mukammal rivojlantirib inklyuziv taʼlimga integratsiya qilinsa mubolagʻa boʻlmaydi. Sogʻlom tengdoshlari qatori sifatli taʼlim oladi. Surdopedagog va logoped hamkorligi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolaning ogʻzaki nutqini barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova Z.Sh. Logopediya asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Xolmatova Z., Turdiyeva M. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar bilan korreksion pedagogika. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2018.
3. Jamolova M.A. Nutqida nuqsoni boʻlgan bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: Muallim, 2020.
4. Karimova N. Surdopedagogika asoslari. — Toshkent: TDPU, 2022.
5. Krupskaya N.K. Pedagogik maqolalar toʻplami. — Moskva, 1980.
6. Vygotskiy L.S. Bola psixologiyasi va rivojlanishi. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2019.
7. Leontyev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. — Moskva: Smysl, 2005.
8. Elkonin D.B. Bolalikda oʻyin faoliyati va uning rivojlanishi. — Moskva, 2004.
9. Smirnova E.O. "Oʻyin va nutq rivojlanishi boʻyicha tadqiqotlar". // Psixologiya jurnali, №5, 2020.
10. Ziatdinova F.S. Logopedik mashqlar tizimi va talaffuzni shakllantirish metodlari. — Kazan, 2017.
11. SHITISHDA NUQSONI BOʻLGAN BOLALARNI OGʻZAKI NUQTGA OʻRGATISH TEXNOLOGIYASI maqolasi mualliflar
Dilfuza Muxtorjon Nizomiy nomidagi TDPU "Surdopedagogika va inklyuziv taʼlim" kafedrası
oʻqituvchisi Bayramali Sirojiddin oʻgʻli Sharipov
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi
12. Shodiyeva. «Maktabgacha bolalarni toʻgʻri talaffuzga oʻrgatish». -T. «Oʻqituvchi», 1990 yil

- 13.Nazarova L. P. Metodika razvitiya sluxovogo vospriyatiya u detey s narusheniyami sluxa. M.: Vlos, 2001 yil.
- 14.Rechitskaya.E.G, Parxalina E.V.Gotovnost slaboslyshashchix doshkolnikov k obucheniyu v shkole" uchebnik. M.Vlos, 2003 y.